


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

*60210200-Kino-teleoperatorlik bakalavriat ta‘lim
yo‘nalishining*

MALAKA TALABLARI

Toshkent-2024

1



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil "25" 26 dagi 218 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlanga.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar	6
3.	Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar	7
4.	Fanlar katalogining tuzilishi	8
	Bibliografik ma'lumotlar	10
	Kelishuv varag'i.....	11

1. Umumiy tavsifi

60210200 – Kino-teleoperatorlik ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi 60210200 – Kino-teleoperatorlik ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun ma'sul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor o'qituvchilari;

ta'lim yo'nalishining o'quv reja va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim tashkilotini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning otalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari:

60210200 – Kino-teleoperatorlik ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari san'at va madaniyat muassasalaridagi ijodiy jarayonni tashkil etish, faoliyat tizimini takomillashtirish, umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib qilish, san'at va madaniyat sohasida kompleks masalalarni yechish, madaniyat va san'at sohasini boshqarishga tegishli muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan vositalar, usullar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

O'zbekiston Respublikasi madaniyat va turizm vazirligi xuzuridagi kinemotografiya agentligi, O'zbekfilm kinokonserni, Hujjatli va xronikal filmlar kinostudiyasi DUK, O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi va uning xuzuridagi barcha teleradiokanalar, nodavlat kinostudiyalar va telekannalar assotsiatsiyasi, davlat boshqaruvi organlari.

60210200-Kino-teleoperatorlik bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitiruvchilar pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgan taqdirda, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *ilmiy- tadqiqot.*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *badiiy-ijodiy;*
- *axborot-tahliliy faoliyat;*

1.2.4. Kasbiy vazifalari.

60210200-Kino-teleoperatorlik ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

Respublika va xorijda chop etilgan madaniyat va san'atga oid ilmiy-ijodiy axborotlarning ilmiy manbalarini o'rganish;

madaniyat va san'at sohasi ob'ekti va predmetlarini nazariy va amaliy muammolariga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda ishtirok etish;

mavzu bo'yicha ilmiy-ijodiy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

ilmiy-ijodiy natijalarni va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish.

amaliy faoliyatda zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikasi va kommunikatsion vositalaridan foydalanish;

zamonaviy texnologik jarayonlarni qo'llash;

ilmiy asoslangan tizimlarni tavsiya etish va foydalanish;

Tashkiliy-boshqaruv va ijodiy-ishlab chiqarish faoliyatida:

tashkiliy-boshqaruv faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;

ijodiy-ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

ijodiy-ishlab chiqarishda zamonaviy axborot texnologiyalar tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash uslub va mexanizmlarini ishlab chiqish;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tatbiq etish;

ijodiy-ishlab chiqarish jarayonida sifatni boshqarish;

ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

turli fikrlilik sharoitida boshqaruv qarorini qabul qilish;

- birlamchi ishlab chiqarish guruh ishini tashkil qilish va uni boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;
- ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish;
- kino san'atining, operatorlik kasbining paydo bo'lish tarixi;
- kinoning san'at sifatida jamiyatda tutgan o'rni;
- kino janrlari va ularning xususiyatlari;
- kino va video texnologiyalarni o'zlashtirish va ular vositasida kino va video mahsulotlar ishlab chiqarish, fotografiya xizmatini ko'rsatish;
- televidenie va kino san'ati sohasida turli film va ko'rsatuvlarni yaratishda operatorlik qilish;
- muhandislik va konstruktiv qarorlarni ishlab chiqish, ishlab chiqarish jarayonida sifatni sinash, texnik nazoratni va boshqaruvini amalga oshirish;
- jahon kino maktablari va oqimlar;
- seytraffer, rapidli, tezlashtirilgan, sekinlashtirilgan va boshqa murakkab tasvirga olish usullarining imkoniyatlari;
- kino va televideniya turli janrdagi va ko'rinishdagi filmlarni tasvirga olishning o'ziga hos xususiyatlari;
- kino san'atining boshqa san'atlar bilan o'zaro ta'siri va aloqalari
- fotografiyaning san'at sifatida shakllanish bosqichlari;
- fotografiyadagi murakkab va maxsus jarayonlar;
- foto san'ati tushunchasi;
- fotografiyaning san'at sifatida jamiyatda tutgan o'rni;
- fotografiyaning boshqa san'atlar bilan o'zaro ta'siri va aloqalari;
- fotografiya janrlari xususiyatlarini;
- chizilgan rasmlar (raskadrovkalar) yordamida ssenariy mohiyatini saxnalashtirish ssenariysiga tushurish texnologiyasini;
- chizuvchi yorug'lik va kontr yorug'ligining badiiy imkoniyatlarini;
- ochiq, yopiq, muvozanatlangan, muvozanatlanmagan, dinamik va boshqa turdagi kompozitsiyalarni qurish texnologiyasini
- jahon kinosidagi turli kinematografik oqimlarning uslublarini
- aktyorning kadr makonidagi ijrosini tasvirga olishning usullarini;
- operatorlik texnik vositalarining tasviriy ifodalilik imkoniyatlarini;
- kino san'atining montaj, kompozitsiya, yorug'lik va boshqa turdagi tasviriy ifoda vositalari imkoniyatlarini;
- maxsus va murakkab tasvirga olish usullarini;
- maxsus yorug'lik va effektli filtrlarni;
- kinoda yoritish, sahnalashtirilgan va rejimli holatlarni oq-qora va rangli kinotasmalarga tushirish qonuniyatlarini;
- qo'yilgan vazifani hal etishda ijodiy yondashuv;
- dunyo kinoteleoperatorlari tajribalari va usullaridan foydalanish;
- rejissyor bilan hamkorlikda kadrning yorug'lik va rang yechimini hal etish;

murakkab va maxsus tasvirga olish usullaridan foydalana olish;
 kino rassomi bilan filmning tasviriy yechimini yaratish;
 kadrlarni montaj qonun-qoidalariga asosan tasvirga tushirish;
 kinoteleoperatorlik san'atida paydo bo'layotgan yangi shakl va janrlarni o'zlashtirish;

yorug'lik va rang vositasida murakkab tasviriy kompozitsiyalar yaratish;
 optik kompozitsiyalar qurish;
 kadrning koloristik yechimini ishlab chiqish texnologiyasini;
 sodda va murakkab kompozitsiyalar qurish usullari
 fotoreportaj tasvirga olish, ko'p kadrli tasvir, fotocherk yaratish usullarini;
 fotografiyaga doir barcha turdagi texnik vositalarni;
 foto tasvirga olish va uni qayta ishlash usullarini;
 dunyo kinoteleoperatorlari tajribalari va usullaridan foydalanish;
 kino, video va media mahsulotlar ishlab chiqish bo'yicha ijodiy-muhandislik guruhi ishini tashkil etish, turli fikrlar sharoitida boshqaruv qarorlarini qabul qilish;
 ilmiy va amaliy faoliyatda sohaga mos tizimni rivojlantirish va ulardan foydalanish;

kasbiy etika kodeksiga rioya qilish.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

Loyihalar samaradorligini baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;

boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;

dunyoqarash bilan bog'liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo'lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga olib bilishi;

kino va televidenie san'ati sohasida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatda foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;

kino-foto uskuna va qurilmalar, shu sohada foydalanish zarur bo'lgan texnik jihozlar, fototasmalar, yoritish asboblari va vositalari, foto, kino dekoratsiyalari, kinotasvirga olish texnik qurilmalaridan (kino kameralar, videokameralar, raqamli kameralar va boshqa turdagi tasvirga olish va yozish texnik vositalari va h.k.) foydalanish;

fotografiya asoslari, kompozitsion, fotonatyurmort, fotoetyud va obrazli fikr, kompozitsiyada detal, yorug'lik tonlari orqali fikrlarga metaforik ifodalash bilimlar, yoritish asboblari va uskunalar, foto, kino dekoratsiyalari, kinotasvirga olish;

tasvirni qayta ishlash qurilmalarini ishlatishni, ularga badiiy ijodiy texnik xizmat ko'rsatish;

kinematografiyada g'oyaviy-badiiy madaniyat, tasvirga olish tarixi va nazariyasi, kino tasvirga olish ijodiy ishlab chiqarish;

kinoteleoperatorlikning texnik va ijodiy tomonlari haqida mukammal ta'lim olish;

operatorlik tasviriy texnikasi haqida bilish, o'z badiiy tafakkurini professional darajada ishga solish, hamda bu asarlar orqali xarakterni aniq va ishonchli qilib ochib bera olish;

asar dramaturgiyasini ko'rsata olish, kino dekoratsiyalari, kinotasvirga olish va qayta ishlash texnik qurilmalarini ishlatish va takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlarni o'tkazishni, natijalarga ishlov berish;

O'zbekiston Milliy kinematografiya sohasidagi mavjud muammolarni o'rganish tahlil qilish va ijodiy ishlarni tashkillashtirish;

aholi o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish kabi ko'nikmalariga ega bo'lish.

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

1. Tanishuv amaliyoti;
2. O'quv amaliyoti;
3. Ishlab chiqarish amaliyoti;
4. Bitiruv oldi amaliyoti.

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar			
1.01	O'zYT 20014	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02	FAL 20014	Falsafa	120	4	3
1.03	DIN 20014	Dinshunoslik	120	4	2
1.04	O'z RT 20014	O'zbek (rus) tili	120	4	1,2
1.05	XT 20014	Xorijiy til	120	4	1,2
1.06	PYA 20014	Pedagogika-psixologiya	120	4	1,2
1.07	MST 20012	Madaniyat va san'at tarixi	60	2	7
1.08	FOTOKA 200126	Fotokompozitsiya	780	26	1,2,3,4,5,6
1.09	KTM 200166	Kinoteleoperatorlik mahorati	1980	66	1,2,3,4,5,6,7
1.10	KDRA 20018	Kinoteledramaturgiya va rejissura asoslari	240	8	1,2,3,4
1.11	KTT 20014	Kino va televideniye tarixi	120	4	3,4
1.12	YRKA 20018	Yorug'lik, rang va kompozitsiya asoslari	240	8	3,4,5,6
1.13	TAST 20012	Tasviriy va amaliy san'at tarixi	60	2	1
1.14	KAO 20014	Kinotasvir apparaturasi va optika	120	4	1,2
1.15	KOA 200116	Kinokompozitsiya	480	16	1,2,3,4,5,6
1.16	MON 200118	Montaj	540	18	1,2,3,4,5,6,7
1.17	TEPP 200112	Tasviriy effektlar va post-prodakshn	360	12	4,5,6,7
1.18	O'z JA 20014	O'zbek va jahon adabiyoti	120	4	1,2
2.00		Tanlov fanlar	240	8	5,6,7
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	240	8	5,6,7
<i>Kvalifikatsiya</i>		<i>Kino-teleoperator</i>			
		Jami	6060	202	
		Malakaviy amaliyot	900	30	2,4,6,8
		Bitiruv malakaviy ishi	240	8	8
		Jami	1140	38	
		HAMMASI	7200	240	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01**Tayanch so'zlar:**

kino, operator, televideniye, ekran, montaj, kompozitsiya, dekoratsiya, syomka, rakurs, aktyor, rejissyor, rang, audio, video, yoritish, sahna, ssenografiya, apparat, optika, tasvir, studiya, ssenariy, obraz, rassom, proeksiya, televideniye, radio, teatr, tomosha, ovoz, studiya, dastur, insenirovka, montaj planlari, badiiy, obraz, musiqa, shovqin, elektro, akustika, texnika, video, klip, nutq, partitura, effekt, ko'rsatuv, eshittirish, postanovka, aktyor, rejissyor, san'at, mahorat, sahna, badiiy, obraz, g'oya, ijod, asar, p'esa, drama, rol, ijobiy, salbiy, plastika, raqs, ijro, ovoz, nutq, kino, obraz, televideniye, radio, drama, kino, rejissyor, tadqiqot, adabiy, badiiy, tanqid, sahna, spektakl, pyesa, ijod, ijro, jamoa, shaxs, ijobiy, salbiy, tragediya, komediya.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQUVGAN

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Rektor  N.B. Sayfullayev

2024-yil “ _____ ”

M.O'.

KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari
markazi

Direktor  M.R. Boltaboyev

2024-yil “ _____ ”

M.O'.

O'zbekiston Respublikasi
Madaniyat vazirligi
Ta'lim sohasini muvofiqlashtirish
bo'limi

Bo'lim boshlig'i  O.R. Salixov

2024-yil “ _____ ”

M.O'.

Hujjatli va xronikal filmlar
kinostudiyasi DUK

Direktor  O.O. Sodiqov

2024-yil “ _____ ”

M.O'.

O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi
huzuridagi Kinematografiya agentligi

Direktor v.h.  Sh.T. Rizayev

M.O'.

“O'zbekfilm” kinokonserni DUK

Direktor  B.K. Adilov

2024-yil “ _____ ”

M.O'.